


Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Toshkent shahrida shamol tezligi kuchaytirish va qurilish sektorida ventur hamda konvergen aerodinamik usullar asosida havo almashinuvini yaxshilash 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - Toshkent shahrida shamol tezligi dinamikasiga ta'sir etuvchi asosiy omillar (relyef, qurilish zichligi, binolarning dendrit strukturasi, texnogen aerodinamik to'siqlar) ilmiy asosda aniqlanadi; - Ventur va konvergen usullariga asoslangan 3D aerodinamik modellar, <i>CFD (Computational Fluid Dynamics)</i> hisob-kitoblari tayyorlanadi; - Toshkent shahri miqyosida real vaqt rejimida shamol almashinuvi kartografik modeli (<i>Wind- Comfort Map</i>) yaratiladi; - Poytaxtda aerodinamik holatni yaxshilash uchun amaliy arxitektura va shaharsozlik tavsiyalari ishlab chiqiladi; - Ekologik va sanitariya jihatidan havo almashinuvi yaxshi bo'lgan hududlar va xavfli zonalar xaritasi tuziladi; - Hukumatga taklif sifatida shamol koridorlari, ventur-effekt kvartallar, “<i>yashil yo'laklar</i>” konsepsiyalari taqdim etiladi. Natijalarni sinovdan o'tkazish. Olingan natijalar Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi tizim tashkilotlarda sinovdan o'tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to'g'risida natijalar Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o'quv qo'llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar natijalar Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasining qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.